



“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

2/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan
2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat
ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv”
jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga
oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy
tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

ISHQUVATOV Valikhul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*

KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

MUSLIMOV Narzulla Alixanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

NURMATOVA Mukarram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*

NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

SODIQOVA Shohida Markhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

ZOHIDOV Azamatjon A'zamovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*

Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*

Абдураманов Хамид Худайбергеневич – *доктор экономических наук, профессор.*

Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Фарфиев Бахромжон Аткамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*

Ишкuvatov Валикул Турдыевич – *доктор исторических наук, профессор.*

Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*

Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*

Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*

Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*

Рахманкулова Нируфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*

Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*

Содикова Шохид Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*

Зокидов Азаматджон Аъзамович – *доктор экономических наук, профессор.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

Zokhidov Azamatjon Azamovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

SOTSILOGIYA

Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B. Gender yondashuv asosida yoshlarni kasbga yo'naltirishning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari..... 4

Jurayeva Sh.S. Globallashuv sharoitida migratsion munosabatlarning oilalar barqarorligiga psixologik ta'siri..... 14

OILA VA JAMIYAT

Nurullayeva U.N. Xotin-qizlarga nisbatan oiladagi tazyiq va zo'ravonlik holatlari: sabab va oqibatlar, yechim yo'llari..... 22

Kurbanov E.E. Yangi O'zbekistonda demokratik islohotlarning nazariy-siyosiy evolyutsiyasi 34

Tashkenbayeva D.B. Turmush o'rtog'i nogiron yoki ruhiy kasal bo'lgan ayollar bilan ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar..... 44

PSIXOLOGIYA

Abdusamatov X.U., Sharapova D.B. Uy bekasi sindromining oldini olish bo'yicha psixologik tavsiyalar 53

Odilbekov M.M. Turmush o'rtog'i vafot etgan ayollar bilan psixologik ishlash mexanizmlari..... 65

Abduraxmonova F.A. Turmush o'rtog'i bedarak yo'qolgan ayollar bilan ishlash bo'yicha psixologik tavsiyalar 74

Sa'dullayeva J.I. Turmush o'rtog'i jazo muddatini o'tash muassasasidagi ayollar bilan ishlashda psixologik tavsiyalar 84

MAHALLA VA OILA HUQUQI

Alimov S.K. Mamlakatimizda tazyiq va zo'ravonlik holatlaridan jabrlangan ayollarga yordam berish tizimining huquqiy tahlili..... 92

PEDAGOGIKA

Yakubov O. Ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari 99



Alimov Sardor Komil o'g'li,
Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi huzuridagi
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi, O'zMU tayanch doktoranti
sardoralimov2507@mail.ru

MAMLAKATIMIZDA TAZYIQ VA ZO'RAVONLIK HOLATLARIDAN JABRLANGAN AYOLLARGA YORDAM BERISH TIZIMINING HUQUQIY TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar bilan ishlash, ularning ijtimoiy integratsiyasi va rehabilitatsiyasi bilan bog'liq mamlakatimizdagi tizim huquqiy jihatdan tahlil qilingan. So'nggi yillarda mazkur sohada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar hamda amaliy ishlarning ahamiyati yuzasidan fikrlar bildirilgan. Muallif tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollar hamda ularning voyaga yetmagan farzandlarini qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish bo'yicha ko'plab takliflarni ilgari surgan.*

Аннотация. *В данной статье анализируется правовая система в нашей стране, связанная с работой с женщинами, подвергшимся притеснениям и насилию, их социальной интеграцией и реабилитацией. Высказаны мнения относительно принятых в последние годы нормативных правовых документов в данной сфере и их практической значимости. Автор выдвинул множество предложений по развитию системы поддержки женщин и их детей, подвергшихся притеснению и насилию.*

Annotation. *The legal system in our country related to working with women who have suffered of harassment and violence, their social integration and rehabilitation is analyzed in this article. Opinions were expressed regarding the normative legal documents adopted in this field in recent years and their practical significance. The author has put forward many development proposals of the system of support for women and their children who have been subjected to pressure and violence.*

Tayanch so'zlar: *xotin-qizlar, tazyiq, zo'ravonlik, rehabilitatsiya, moslashtirish, gender tenglik, “himoya orderi”, hamkorlik.*

Ключевые слова: *женщины, притеснение, насилие, реабилитация, адаптация, гендерное равенство, «охранный ордер», сотрудничество.*

Keywords: *women, harassment, violence, rehabilitation, adaptation, gender equality, «protection order», cooperation.*

Kirish. Azal-azaldan jamiyat taraqqiyoti undagi ayollarga nisbatan shakllangan ijtimoiy munosabatlarning darajasi, ularga nisbatan hurmat-ehtirom, ularning ijtimoiy hayotdagi roli bilan bog'liq bo'lib kelgan. Ayollarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lgan, ularning haq-huquqlarini himoya qilgan, jamiyatda erkin faoliyat yuritishlarini ta'minlagan millatlar taraqqiy etgan. Aksincha, ayollarga nisbatan salbiy munosabat shakllangan, ularni erkaklarga nisbatan past darajada deb hisoblagan jamiyatlar tanazzulga yuz borgan. Bugungi kunda ham ayollarning ijtimoiy hayotdagi rolini kuchaytirish, ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning har qanday shaklini tugatish global taraqqiyotning asosiy talablaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Xususan, **Birlashgan Millatlar Tashkiloti** Bosh Assambleyasining Barqaror rivojlanish bo'yicha 2015-yilning sentabr oyida o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlari orasida 5 maqsad sifatida butun dunyoda **gender tengligiga erishish hamda barcha ayollar va qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish** belgilab berilgan¹. Bu maqsadga erishish uchun esa ayollarga nisbatan har qanday ko'rinishdagi tazyiq, zo'ravonlik va kamsitishlarni tugatish talab qilinadi. Lekin bugungi kunda ham dunyo bo'yicha ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlari ko'plab uchraydi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda 15 va undan yuqori yoshdagi ayollarning **26 foizi yoki 641 millioni** umri davomida kamida bir marotaba qarama-qarshi jins vakillari tomonidan ko'rsatilgan tazyiq va zo'ravonlik qurboni bo'lgan².

So'nggi yillarda yurtimizda ham gender masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasida gender siyosatining asosiy yo'nalishlardan biri sifatida **“barcha xotin-qizlar uchun gender tenglikni ta'minlash, zo'ravonlikdan himoyalash”**³ sohasida amalga oshiriladigan ishlar ham e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda tazyiq va zo'ravonlik holatlaridan jabrlanganlar, xususan, bunday holatlarga uchragan ayollarni ijtimoiy moslashtirish va rehabilitatsiya qilish tizimi xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, gender tenglikka erishishga oid amalga oshirilayotgan uzviy ishlarning bir qismi hisoblanadi.

Asosiy qism. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tazyiq va zo'ravonlik holatlaridan jabrlangan xotin-qizlarga yordam berish, ularning ijtimoiy rehabilitatsiyasi jarayonlarini amalga oshirish quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishini nazarda tutadi:

**BMT
ma'lumotlariga
ko'ra, bugungi
kunda 15 va undan
yuqori yoshdagi
ayollarning 26 foizi
yoki 641 millioni
umri davomida
kamida bir
marotaba qarama-
qarshi jins vakillari
tomonidan
ko'rsatilgan tazyiq
va zo'ravonlik
qurboni bo'lgan.**

¹ <https://unstats.un.org/sdgs/metadata/?Text=&Goal=5&Target=>

² Доклад о целях в области устойчивого развития, 2022 год. ООН. 2022 г. – С. 36. (<https://unstats.un.org/sdgs/report/2022/The-Sustainable-Development-Goals-Report-2022-Russian.pdf>)

³ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 248.

*Ayollarni
reabilitatsiya qilish
va moslashtirish
respublika
markazining
rasmiy
ma'lumotlariga
ko'ra, 2021-
yil davomida
respublika markazi
va uning hududiy
bo'limlariga jami
7 869 ta murojaat
kelib tushgan.
Ulardan 7 103
tasi ayollar va 464
tasi erkaklardan,
302 tasi esa 18
yoshgacha bo'lgan
bolalardan iborat
bo'lgan.*

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi **“Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”**gi PQ-5116-sonli qarori⁴;

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-oktabrdagi **“Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish borasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”**gi 625-sonli qarori⁵.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5116-sonli qaroriga binoan, tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish tizimi tubdan o'zgartirilib, ilgari mavjud bo'lgan 197 ta zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazlari optimallashtirilib, ularning negizida **Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzurida 29 ta Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika, hududiy va tumanlararo namunalik markazlari, shu jumladan, 1 ta Respublika markazi, 14 ta hududiy markazlar va 14 ta namunalik tumanlararo markazlar** tashkil etilgan.

Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra⁶, 2021-yil davomida respublika markazi va uning hududiy bo'limlariga jami **7 869 ta** murojaat kelib tushgan. Ulardan **7 103 tasi ayollar** va **464 tasi erkaklardan**, **302 tasi** esa **18 yoshgacha bo'lgan bolalardan** iborat bo'lgan. Mazkur murojaatchilarga **3 605 tasi** psixologik, **3 043 tasi** huquqiy, **270 tasi** tibbiy, **951 tasi** esa boshqa ko'rinishdagi yordam ko'rsatilgan. Tahlilga ko'ra, murojaatlarning **38,7 foiziga huquqiy**, qolgan **61,3 foizi** uchun boshqa, ya'ni psixologik va tibbiy ko'rinishdagi yordamlar tashkil qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi **“Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi PF-81-sonli Farmoniga binoan, mazkur markazlar yangi tashkil etilgan **Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi** tuzilmasiga o'tkazildi⁷.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 19.05.2021 даги “Зўрлик ишлатишдан жабр кўрган хотин-қизларни реабилитация қилишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5116-сон қарори. (<https://lex.uz/uz/docs/5426644>)

⁵ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 07.10.2021 даги “Зўрлик ишлатишдан жабр кўрган хотин-қизларни реабилитация қилиш ва мослаштириш ҳамда ўз жонига қасд қилишнинг олдини олиш борасидаги ишларни такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 625-сонли қарори. (<https://lex.uz/uz/docs/5670659>)

⁶ https://t.me/ayol_baxti_uchun_ku/889

⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартдаги “Оила ва хотин-қизлар билан ишлаш, маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш тизimini такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-81-сонли Фармони. (<https://lex.uz/uz/docs/5884143>)

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xuddi shu kuni qabul qilingan **“Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”**gi PQ-146-sonli qarorida yangi tuzilgan davlat qo‘mitasining Markaziy apparati tuzilmasida **“Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish va ijtimoiy reabilitatsiya qilish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘limi”** ham tashkil etilib, hududiy boshqarmalarda ushbu yo‘nalishda faoliyat yurituvchi **bosh mutaxassis** hamda tuman (shahar) bo‘limlarida **yetakchi mutaxassis** lavozimlari joriy etildi⁸.

Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazlari davlat tomonidan moliyalashtirilib, cheklangan xodimlar (jami 63 nafar, shundan 7 nafari markaziy apparatda) soniga ega. Markazlarning faoliyatiga zarur hollarda, **yuristlar, psixologlar va ijtimoiy xodimlar jamoatchilik asosida** jalb qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5116-sonli qaroriga binoan, quyidagilar ushbu markazlarning **asosiy vazifalari** hisoblanadi:

- tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan, o‘z joniga suiqaqd qilgan yoki o‘z joniga qasd qilishga moyilligi bo‘lgan xotin-qizlarga **anonim** tarzda shoshilinch **tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy** va boshqa **yordam ko‘rsatish**;

- og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan, shu jumladan, oilaviy muammolar va turmushida zo‘ravonlikka duch kelgan xotin-qizlar huquqlarining **kafolatlarini ta‘minlashga ko‘maklashish**;

- davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari xotin-qizlarning o‘z joniga qasd va suiqaqd qilish holatlarini **o‘rganish**, bunday holatlarning oldini olish, shuningdek, o‘z joniga suiqaqd qilgan **xotin-qizlarni normal hayotga qaytarish** bo‘yicha faoliyatiga yaqindan ko‘maklashish;

- **“Ayollar daftari”ga** kiritilgan **psixologik** va **huquqiy maslahatga** muhtoj xotin-qizlarni (tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan, ijtimoiy muammolari mavjud xotin-qizlar) har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularni **“Ayollar daftari”dan** chiqarish choralarini ko‘rish;

- nizoli vaziyatlarni, oilaviy-maishiy zo‘rluk ishlatishni va o‘z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvorni, ularning kelib chiqishiga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni **tahlil qilish, umumlashtirish va ularga barham berish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish**;

- tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan yoki o‘z joniga suiqaqd qilgan yoki qasd qilishga moyil bo‘lgan xotin-qizlar bilan **profilaktik tadbirlarni o‘tkazish**;

- og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan, shu jumladan, oilaviy muammolar va turmushida zo‘rluk ishlatilishiga duch kelgan xotin-qizlarni **kasb-hunarga yo‘naltirishga ko‘maklashish**;

Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazlari davlat tomonidan moliyalashtirilib, cheklangan xodimlar soniga ega. Markazlarning faoliyatiga zarur hollarda, yuristlar, psixologlar va ijtimoiy xodimlar jamoatchilik asosida jalb qilinishi mumkin.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартдаги “Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-146-сон қарори. (<https://lex.uz/uz/docs/5884084>)

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tomonidan xotin-qizlarga nisbatan har qanday salbiy holatlarning oldini olish maqsadida 1146 qisqa raqamli ishonch telefoni ta'sis etilgan bo'lib, mazkur raqam orqali tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollarning o'zlari yoki uchinchi tomon hisoblanuvchi shaxslar kunning istalgan vaqtida markazlarga tezkor murojaat qilish imkoniyatiga ega.

- dolzarb ijtimoiy muammolarni aniqlash maqsadida jamoatchilik fikrini o'rganish va ijtimoiy **tadqiqotlarni tashkil etish**;

- zo'ravonlikning oldini olish, xotin-qizlarning huquqlari kafolatlarini ta'minlash, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish, ushbu maqsadlarga erishishda **ommaviy axborot vositalari hamda internet tarmoqlaridan keng foydalanish**.

Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazlariga, asosan, tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan **xotin-qizlar** hamda ularning **voyaga yetmagan farzandlari**, o'z joniga **suiqasd qilgan** yoki shunga **moyilligi bo'lgan xotin-qizlar** joylashtiriladi.

Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollar bilan samarali ishlash, ularning ijtimoiy rehabilitatsiyasini amalga oshirish, tashkil etilgan markazlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun mazkur faoliyatning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xodimlar va markazlarga taklif etilayotgan ekspertlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash talab qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5116-sonli qarorida markazlarning faoliyatini moliyalashtirish manbalari aniq ko'rsatib o'tilgan. Quyidagilar markazlar faoliyatini **moliyalashtirish manbalari** etib belgilangan:

- Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi (jamg'arma 2022-yil 1-martdagi PF-81-sonli Farmon bilan **Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi** sifatida qayta tashkil etilgan) mablag'lari;

- yuridik va jismoniy shaxslarning **homiylilik xayriyalari**;
- **xalqaro moliya institutlari** va boshqa xorijiy tashkilotlarning **grantlari**;

- qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-oktabrdagi 625-sonli qarori bilan Respublika markaziga **1 ta xizmat** hamda hududiy markazlarning har biri uchun **1 tadan navbatchi avtotransport** vositalarini sotib olish va ulardan xizmat faoliyatida foydalanishga ruxsat berilgan.

Umuman olganda, markazlarning zo'ravonlikka uchragan ayollarni ijtimoiy moslashtirish bilan bog'liq faoliyati tegishli vazirliklar va davlat tashkilotlari bilan **hamkorlikda** amalga oshiriladi. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tomonidan xotin-qizlarga nisbatan har qanday salbiy holatlarning oldini olish maqsadida **1146** qisqa raqamli ishonch telefoni ta'sis etilgan bo'lib, mazkur raqam orqali tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollarning o'zlari yoki uchinchi tomon hisoblanuvchi shaxslar (qo'ni-qo'shnilar, qarindoshlar, tazyiq va zo'ravonlik holatidan xabardor fuqarolar va boshqalar) kunning istalgan vaqtida markazlarga tezkor murojaat qilish imkoniyatiga ega. **Sog'liqni saqlash tizimi** bilan hamkorlikda zo'ravonlikka uchragan ayollar to'g'risidagi ma'lumot

bilan o'zaro almashish hamda zarur bo'lgan hollarda respublika hududidagi markazlar direktorlarining talabnomasiga ko'ra hududiy tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritayotgan **psixoterapevt hamda tibbiy ruhshunoslarni** Respublika markazi va hududiy markazlarga jalb qilish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, Respublika yoxud hududiy markazlarga joylashtirilgan yoki reabilitatsiyadan o'tgan xotin-qizlarni **kasb-hunarga o'rgatish va ularning bandligini ta'minlash** bo'yicha Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, uning hududiy boshqarma va bo'limlari bilan hamkorlik qilish hamda markazlardan o'z oilasiga qaytgan ayollar va ularning farzandlari xavfsizligini ta'minlash, ularning oilasidagi muhitni muntazam **nazorat qilish** vazifalari **hududiy ichki ishlar organlarining xotin-qizlar bilan ishlash masalalari bo'yicha inspektorlari va profilaktika (katta) inspektorlari** tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Xulosa. Respublikamizda tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollar va ularning voyaga yetmagan farzandlarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy reabilitatsiyasini amalga oshirish bo'yicha yaratilgan tizimini rivojlantirish bo'yicha **quyidagilarni taklif etamiz:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish lozim, deb topdik. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

✓ **maishiy zo'ravonlikdan aziyat chekkan ayollar, keksalar va bolalarni** ham himoya qilish;

✓ tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan **mexanizmlarni** kuchaytirish;

✓ tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rganlarning huquqlarini himoya qilish, tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxslar bilan profilaktik, psixologik, huquqiy ishlash mexanizmlarini takomillashtirish.

2. "**Himoya orderi**"ning tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha ta'siri nuqtayi nazaridan monitoring tahlilini o'tkazib borish kerak.

3. Tazyiq va zo'ravonlikka qarshi kurashishda 2 muhim yondashuvni joriy qilish lozim, ular:

- zo'ravonlikdan jabr ko'rganlar hamda zo'ravonlik **sodir etgan shaxslar bilan bir vaqtning o'zida** kompleks ishni tashkil etish.

- zo'ravonlikni **erta aniqlash diagnostikasini** ishlab chiqish, oilalardagi nosog'lom muhitni nazoratga olish.

4. Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi va uning hududiy bo'limlarining **moddiy-texnik bazasini** yanada mustahkamlash choralari ko'rish kerak.

5. Psixologlar, ijtimoiy ishchi hamda yurist lavozimlari **doimiy shtatlarini** tasdiqlash yoki **shartnoma asosida** ularning faoliyati yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq.

Respublika yoxud hududiy markazlarga joylashtirilgan yoki reabilitatsiyadan o'tgan xotin-qizlarni kasb-hunarga o'rgatish va ularning bandligini ta'minlash bo'yicha Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, uning hududiy boshqarma va bo'limlari bilan hamkorlik qilish hamda markazlardan o'z oilasiga qaytgan ayollar va ularning farzandlari xavfsizligini ta'minlash, ularning oilasidagi muhitni muntazam nazorat qilish vazifalari hududiy ichki ishlar organlarining xotin-qizlar bilan ishlash masalalari bo'yicha inspektorlari va profilaktika (katta) inspektorlari tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

**Ayollarni
reabilitatsiya qilish
va moslashtirish
markazlariga
murojaat
qiluvchilarning
yashash muddati
– 5 kundan 1
oygacha. Xulosa
asosida bu muddat
qo‘shimcha yana
bir oygacha
uzaytirilishi
mumkin.**

6. Mehnat jamoalarida ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish maqsadida **targ‘ibot ishlarini olib borish**, tashkilot rahbarlarining **javobgarligini belgilash** dardkor.

7. Xodimlarda zo‘ravonlikdan jabrlanganlar bilan kompleks ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish. Jamiyatda profilaktika ishlari samaradorligini oshirish maqsadida Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazining hududiy bo‘limlari xodimlari va mahalla faollari uchun muntazam **o‘quv seminarlari va treninglar o‘tkazib borish** shart.

8. NNT va davlat tashkilotlarining oilada zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha **hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish** yuzasidan mahalliy hokimiyatlar va NNTlarning ijtimoiy sheriklik faoliyatini faollashtirish dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish lozim.

9. Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarni himoya qilish, ularning reabilitatsiyasini amalga oshirishda faqatgina davlatga bo‘ysunuvchi markazlar, shelterlar, vaqtinchalik turarjoylardan tashqari **nodavlat notijorat** tipidagi inqiroz markazlari, shelterlarni tashkil etish kerak.

10. Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga murojaat qiluvchilarning yashash muddati – **5 kundan 1 oygacha**. Xulosa asosida bu muddat qo‘shimcha **yana bir oygacha** uzaytirilishi mumkin. Bundan anglashimiz mumkinki, tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarni markazlarga joylashtirish vaqtinchalik chora hisoblanadi. Shuning uchun tazyiq va zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollar va farzandlarining huquqlarini keyinchalik ham himoya qilish, ularning **turmush darajasini yaxshilash, arzon uy-joy bilan ta‘minlash** choralari ko‘rish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://unstats.un.org/sdgs/metadata/?Text=&Goal=5&Target=>
2. Доклад о целях в области устойчивого развития, 2022 год. ООН. 2022 г. – С. 36. (https://unstats.un.org/sdgs/report/2022/The-Sustainable-Development-Goals-Report-2022_Russian.pdf)
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 248.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги “Зўрлик ишлатишдан жабр кўрган хотин-қизларни реабилитация қилишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5116-сон қарори. (<https://lex.uz/uz/docs/5426644>)
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 7 октябрдаги “Зўрлик ишлатишдан жабр кўрган хотин-қизларни реабилитация қилиш ва мослаштириш ҳамда ўз жонига қасд қилишнинг олдини олиш борасидаги ишларни такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 625-сонли қарори. (<https://lex.uz/uz/docs/5670659>)
6. https://t.me/ayol_baxti_uchun_ku/889
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартдаги “Оила ва хотин-қизлар билан ишлаш, маҳалла ва нурунийларни қўллаб-қувватлаш тизimini такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-81-сонли Фармони. (<https://lex.uz/uz/docs/5884143>)

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA
IJTIMOIY HAYOT**
СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

2/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.
Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.
The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions
of makhalla, family and gender equality.*

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,
Jo‘rayeva M., Razzakova N.,
Sobirova E., Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 21.08.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangıhayot tumani, 5-qurılısh hududi, 9-uy.